IKKINCHI JAHON URUSHIDA SOVET HARBIY ASIRLARI VA MATBUOTI.

O‘sarov Husniddin Do‘smamatovich,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Ikkinchi jahon urushi yillarida nemis-fashistlariga asir tushgan sovet xalqi vakillarining Germaniyadagi matbuot organlari haqida ma’lumotlar keltirilgan Ayniqsa, turkistonliklarning matbuot organlari faoliyatiga alohida e’tibor qaratilgan.

Tayanch atamalar: *Asir, legion, legioner, “Zarya”, “Dobrovolets”, “Skartvelo”, “Ayyaston”, “Idil-Ural”, TMBK, “Milliy Turkiston”, “Milliy adabiyot” “Yangi Turkiston”, chig ‘atoy tili, propaganda, milliy mafkura, mushtariy, badal, muxbir, ta’sischi, “Qizil qalam”.*

Annatatsion: This thesis presents information about the press organs of the representatives of the Soviet people who were captured by the German fascists during the Second World War. Particular attention is paid to the activities of the press organs of Turkestans.

Key terms: *Prisoner, legion, legionnaire, "Zarya", "Dobrovolets", "Skartvelo", "Ayyaston", "Idil-Ural", TMBK, "National Turkestan", "National Literature" "New Turkestan", Chig 'Atoy language, propaganda, national ideology, client, contributor, reporter, founder, "Kyzyl Qalam".*

Ikkinchi jahon urushi yillarida Germaniya hukumati sovet harbiy asirlariga o‘z milliy matbuotini tashkil etishga ruxsat berdi. Deyarli barcha millatlar o‘z matbuot organlariga ega edi. Jumladan rus asirlaridan tuzilgan Rossiya Ozodlik Armiyasi (ROA) harbiy qismlari jangchilari uchun “За Родину” (“Vatan uchun”), “Заря” (“Tong”), “Доброволец” (“O‘z ixtiyori bilan”) nomli gazetalar bosilgan. Bu gazetalar jangchilar o‘rtasida tarqatilgan. Ushbu gazetalar rus tilida chop etilgan bo‘lib, ko‘p

ming nusxada chiqarildi. Jumladan, sobiq harbiy asir, mayor A. Zikov muharrirligi ostida haftada ikki bor chop etilgan “Доброволец” gazetasi 20 ming nusxada bosilgan. Gazeta 4 sahifada, ayrim sonlari 8 sahifada chiqqan. “Заря” gazrtasi 100 ming nusxada bosilib turgan bo‘lsa, “За Родину” (“Vatan uchun”) kamida 50-60 ming nusxada nashr qilingan. Ukrain millati legionerlarining "Prometey" jurnali, "Nabat” gazetasi chop etilgan. Shuningdek, arman tilida "Ayyastan", gruzin tilida "Sakartvelo" ozarboyjon tilida "Ozarboyjon", Shimoliy Kavkaz halqlari tillarida "G’azovot", tatar tilida "Idil-O‘rol" kabi o‘nlab matbuot organlari ming-minglab nusxalarda chop etilib legionerlar orasida tarqatildi. Shimoliy Kavkaz halqlari (chechen, ingush, dog‘iston) tillarida yozilgan maqolalar qaysi tilda yozilsa, o‘sha tilda bosilgan.

Germaniyada 1940 yillarda chop etilgan sovet millatlari tillarida gazetalar va jurnallarda frontlardagi janglar tafsiloti, legionerlarning kundalik hayoti, har bir millat g‘ururini oshiradigan she’r va hikoyalar, adabiyot namoyandalarining yirik asarlaridan ayrim parchalar berib borilgan. "Заря" gazetasining 1943 yil oktyabr sonida Rossiya Ozodlik Armiyasining maqsadi: SSSRda I.V.Stalin diktaturasini ag‘darish, xususiy mulkchilikka imkon beradigan jamiyat tuzish, Turkiston va Kavkaz xalqlariga muxtoriyat berish, Germaniya bilan tinchlik shartnomasi tuzib, urush tugaganidan so‘ng, Rossiyada ozod va erkin davlat barpo etish bilan bog‘liq siyosiy maqola berilgan.

1942 yilda Turkiston millati vakillaridan tuzilgan, nisbatan ko‘p sonli, ya’ni salkam 267 ming nafar o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz tojik va qoraqalpoqlarni birlashtirgan “Turkiston legioni” a’zolari va Vali Qayumxon (1904-1993 yillar) rahbarligidagi Turkiston Milliy Birligi Qo‘mitasi (TMBQ) tomonidan urush yillarida chop etilgan matbuot ustida batafsilroq fikr yuritish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Turkiston harbiy asirlarining matbuot organlari chop etilishida Vali Qayumxonning roli katta. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra 1942-1945 Yillarda Germaniya poytaxti Berlin shahrida "Yangi Turkiston" nomli haftalik gazeta, to‘rt haftada bir bor

bosiladigan "Milliy Turkiston" va oyda bir marta chiqib turgan "Milliy adabiyot" jurnallari bo‘lgan.

"Yangi Turkiston" gazetasining bosh muharriri Turkiston legionchilaridan biri Vali Zunnun, Zavqiy, Abdulla To‘lagan nomlari ham bo‘lgan. Muhojir o‘zbek Ahpor A’zamovning (1915-1993 yy) xotirlashicha Vali Zunnun harbiy xizmatga safarbar etilishidan oldin ham Toshkentda, o‘zbek gazetalaridan birida muxbir vazifasida ishlagan va ancha tajribaga ega bo‘lgan. U xorijda o‘z ism-sharifini o‘zgartirib turgan hamda Abdulla To‘lagan, Vali Zunnun "Milliy Turkiston" jirnalining tahrir ishlarida maqolalar saralashda ham qatnashib turgan, o‘z maqolalari bilan gazeta va jurnallarda faol ishtirok qilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin ushbu Germaniyada yashab qolgan, nemis ayoliga uylanib, undan farzandlar ko‘rgan va Germaniyaning Myunxendagi “Turkistonliklar yordamlashma jamiyati”da faol a’zo bo‘lgan.

"Milliy adabiyot" jurnali 1943-1945 yillar davomida chiqib, uning ham tahririyati Germaniya poytaxti Berlin shahrida bo‘lgan. Jurnalda Qo‘bizchi Qo‘rqul muharrirlik qilgan. M.Ravshan, S.Betalman, Sayran Xushnud, Q.Qozi, Sir Bolasi, Jumay, Sag‘in, Mavlon, G‘oyib, Masrur, Doro, Zorlik, O‘lmas Talimarjon kabi turli millat vakillaridan adabiy kuchlar faoliyat faoliyat.

"Milliy adabiyot"ning vazifasi haqida fikr bildirar ekan, Vali Qayumxon: "Milliy adabiyot" adabiy jurnal o‘quvchilarini Vatan, ozodligini ko‘zlagan adabiyot bilan oziqlantirmog‘i kerak.....

Yolg‘iz Vatan tilagini badiiy adabiyot orqali yetkazishi kerak: "Milliy adabiyot" turk millatini har bir urug‘i dialektida chiqishi lozim"-degandi. Uning taklifi inobatga olingan holda "Milliy adabiyot jurnalida maqolalar, hikoya, roman, she’r, novella, xabar va muloqot-suhbat materiallari qaysi tilda (o‘zbek, turkman, tojik, qaraqalpoq) yozilsa, o‘sha tilda bosilardi.

"Milliy adabiyot" O‘zbekiston SSRda faoliyat yuritgan "Qizil qalam" tashkilotiga qarshi tashkil etilgandi. "Qizil qalam" uyushmasi sovet mafkurasi

targ‘iboti bilan shug‘ullanib, milliy istiqlol goyalarini mahdudlik sifatida tanqid ostiga olgandi. "Milliy adabiyot sahifalarida bosilgan badiiy ijod namunalari ozodlik va mustakillik uchun kurash g‘oyalari ruhi bilan sug‘orilgan va sovet davri qatag‘on-qirg‘inlari hamda milliy kamsitish, zo‘ravonlik siyosatini tanqid ostiga olgandi. Jumladan, ijodkor, sobiq harbiy asir Ravshan (M.Abdullayev)ning "Qurbon” romani 1937-1938 yillarda SSSRda yuz bergan qatag‘onlik siyosati fojealariga bag‘ishlangandi. Roman "Milliy adabiyot"ning 1944 yilda bosilgan 5,6,7,8 kabi bir qator sonlarida bosilgandi".

“Milliy Turkiston" jurnalining ta’sischisi va bosh muharriri Vali Qayumxon bo‘lib, ushbu jurnal 1943 yilda Germaniya poytaxti Berlinda, keyinchalik Dyusseldorf shahrida bosilgan. Jurnalning 1943 yilda bosilgan 1-sonida Vali Qayumxonning 2 ta maqolasi e’lon qilingan. "Bizning yo‘limiz otalar yo‘lidir, mustakillik yo‘lidir”- degan fikr bildirilgan, uning tomonidan jurnal birinchi sonining bosh maqolasida "Milliy Turkiston"ning 1943-1945 yillarda 62 ta soni chop etildi. Ushbu jurnal Turkiston legioni a’zolarining eng yaqin maslakdoshi bo’lgan. Unda asosan milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan maqola, va badiiy asarlar bosilgan. Frontlardagi janglar tafsiloti bilan bog‘liq ma’lumotlar ham berilganligi bu jurnalga qiziqishni oshirgan. "Milliy Turkiston" jurnalining muntazam chiqib turishi maqsadida Turkistan legioni a’zolari maoshidan badal olinar, ushbu badal oddiy legionerlar uchun 5 RM (Reyxmarka-nemis puli), zobitlar uchun 15-20 RM miqdorla belgilangan. Jurnalda Turkiston millati vakilarining barchasi o‘z maqolasi she’r va hikoyalari bilan qatnashishi mumkin edi. Cho‘lpon, Fitrat, Botu, Elbek, Mannon she’rlari jurnal har bir sonida berib borilgan.

"Milliy Turkiston" jurnali o‘zini 1929-1939 yillarda Fransiya poytaxti Parijda Mustafo Cho‘qay chop ettirgan "Yosh Turkiston" jurnali ishining davomchisi deb hisoblagan. Jurnal Ikkinchi jahon urushidan keyin qayta tiklanib, 1948-1975 yillarda ham nashr qilib turildi "Milliy Turkiston"ning arab va lotin imlosida o‘zbek tilida chop

etilgan sonlari hamda uning ingliz tilidagi nusxalari o‘nlab mamlakatlarda tarqatildi. 1970-yillarda jurnalning bitta sonini chop ettirish uchun 6-7 ming AQSH dollariga tushar va unga iona to‘plash kompaniyalari uyushtirib turilgan. Xullas, 1943-1945 yillarda va 1948-1975 yillar davomida "Milliy Turkiston" jurnalining 134 ta soni nashrdan chiqarildi va ushbu jurnal xorijdagi o‘zbeklar matbuoti tarixida muhim iz qoldirdi. Mazkur muxtasar tadqiqot sungida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet harbiy asirlari tomonidan SSSR xalqlarining turli tillarda o‘nlab matbuot organlari (gazeta va jurnallar) chop etilgan. Ularda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘ururni uyg‘otishga qaratilgan va milliy ozodlik uchun kurash g‘oyaalari targ‘ib qilingan. Shuningdek, ushbu matbuot organlari o‘z Vatani uchun keraksiz qilib tashlangan kishilarga ma’naviy darddosh bo‘lgan, deb hisoblash mumkin. Mazkur yillarda Germaniyada chop etilgan matbuot organlari turkistonliklarning gazeta va jurnallari ta’siran kuchga ega bo‘lib, ular muntazam chiqib turgan. Istiqbolda "Milliy Turkiston", "Milliy adabiyot "Yangi Turkiston" singari urush yillarida chiqarilgan Germaniyadagi Turkiston matbuotini o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lardi. Bu Turkiston (O‘zbekiston) da istiqlol uchun kurashlar solnomasi uzluksizligini va davomiyligini o‘rganish uchun ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ahad Andijon Cedidiizmdan Bagimsizligiga Turkiston Mucadelese. Birinchi Baski; Ustambul. 2003. -S.381 (947S).

2. Волкогонов Д. Триумф и трагедия. Политический портрет И.В. Сталина 2-х книгах. Част 1. М.: 1989.-С.255-265 (542 стр)

3. Военно исторический журнал; 1991.- №4.-С.21-22.

4. Karimov B. "Milliy adabiyot" Ravshan va «Qurbon"//, Yoshlik. 2000.-№3.-B.39 B(38-44)

5. Катусеев А.Ф. Оппоков В.Г. Движение которого не было или история Власовского предательство // Военно исторический журнал, 1992.-N4.-С.22.(С.21-34)

6. Мария Чокай. Я пищу вам из Ножана. Воспоминания, письм, документы. Алматы. «Кайнар», 2001.-С.165. (241стр.)

7."Milliy adabiyot"; 1944 yil, 2-son.-B.5

8.Muhojir o‘zbek Axror A’zamovning shaxsiy arxivi, 5-daftar; -B.3-4. 35.

9. Пальчиков Р.А История генерала Власова // Новая и новейщая история: -N2-С.134. (С131-147)

10.Садыкова В. История Туркестанского легиона в документах. Алматы. Издательство «Кайнар», 2002. -С. 112. (247 стр.)

11.Qizil O‘zbekiston, 1943 yil 13 may.

12.Hayitov. Sh. Badriddinov.S. Vatan deya Vatansiz qolganlar qismati. Buxoro: “Buxoro” nashriyoti; 2006.-B.140. (154 bet)

13.Hayitov Sh.A. O‘zbek muhojirligi tarixi. T.: “ABU MATBUOT KONSALT”; 2008.-B143-145. (208 bet)